

KOINOT VA MIKROOLAM QONUNIYATLARINING BOG‘LIQLIGINI DASTURIY VOSITA ORQALI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH

Raxmanova Nozima Nasrulla qizi

A.Qodiriy nomidagi JDPU, Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (fizika va astronomiya) mutaxassisligi magistri.

e-mail:raxmanovanozimabonu@gmail.com

Kirish


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032 son “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorida zamonaviy didaktik-metodik talablar asosida fizika fanining amaliyot bilan aloqasini ta’minlash va bu aloqani yanada mukammal o‘rganishni jadallashtirish, fizikani chuqurlashtirgan holda o‘rganishda o‘qitish vositalari imkoniyatlarini kengaytirish masalalari zaruriyat ekanligi ta’kidlangan.[1] Bu maqsadga muvofiq men magistrlik dissertatsiya mavzuyimni tanladim. “Koinot va mikroolam qonuniyatlarining bog‘liqligini kreativ yondashuv asosida o‘qitish” – mavzuyim doirasida qilingan barcha ishlar va ma’lumotlar bilan batafsil tanishdim. Respublikamizda hech bir olimlik va PhD bu ish bo‘yicha qilinmagan. Chet elda qilingan ishlarni ham kuzatdim, ammo aynan mavzu bo‘yicha emas aniq fan yoki pedagogika qismi alohida qilingan ishlar bilan tanishdim. Koinot yoki mikroolam qonuniyatlari bog‘liqligi jarayonlari to‘liq aniqlik bilan yoritilish jarayonlari kam uchragan. Dissertatsiyam bo‘yicha aniq ma’lumotlar va faktlarga tayangan holda va dasturiy vositalar yordamida pedagogik jihatlarini ochib bermoqdaman.


Muhokama: Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi[2] Kreativlik asosida o‘qitishda barcha olimlar shu jihatlarni etiborga olishgan. Men shuni takomillashtirgan holda individual ishlashni yo‘lga qo‘ymoqchiman. Bunda “Koinot va mikroolam qonuniyatlarining bog‘liqligini kreativ yondashuv asosida o‘qitish”ga asoslangan

dasturiy ta’minot orqali har bir talabanning “Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi, nazariy fizika va astrofizika” fanlaridan olgan bilimlarini tekshirish, baholash va mustahkamlashga yordam beruvchi dasturiy vositani yaratish arafasidaman. Nazariy jihatdan tuzilgan loyiha amalga oshsajuda katta yutuqlar kutilyapti.

Tadqiqot. Loyihada har bir mavzuning aniq ma’lumotlari, ya’ni “Fizika va astronomiya o’qitish ta’limi” 3-4-kurs talabalarining “Atom, yadro va elementar zarralar fizikasi, nazariy fizika va astrofizika” darslaridagi nazariy va amaliy, laboratoriya mashg’ulotlari jarayoniga asoslangan barcha eng so’ngi ma’lumotlar, keltiriladi, bajariladigan ishlar, topshiriqlar(har bir mavzuda masalalar, testlar) va laboratoriya ishlarini virtual bajarish imkoniyatlarini yaratuvchi interfeys yaratilishi nazariy jihatdan yoritilmoqda. Tadqiqotning asosiy yangiligi yaratilgan interfeys Crocodile Physics dasturiy vositasiga bog’lanishi (imkoni bo’lsa).

Yana, eng asosiy ish bu har bir fanning bog’liqligini yoritishga ya’ni “Koinot va mikroolam qonuniyatlarining bog’liqligi” ko’rsatuvchima’lumotlarning berilishi va ularni mustahkamlab, talabanning yaratuvchanligini oshirishdir.





Xulosa. Ko‘zlangan maqsadga erishish uchun tayyorlanayotgan materiallar va boshqa fanlar yuzasidan yaratilgan loyihalar dasturiy ta‘minotlarini hozirgi kunda o‘rganmoqdaman va ularni yanada takomillashtirish uchun dasturchilardan yordam so‘radim. O‘ylaymanki, bu ish birinchilardan bo‘lib umumlashirilgan dasturiy ta‘minot bo‘ladi. Asosiy katta xulosalarni berish jarayoni dasturiy ta‘minot to‘liq yaratilib ishga tushgandan so‘ng va tajriba-sinov natijalaridan keyin qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. PQ -5032. 19 mart 2021 yil. Toshkent sh.
2. N.Raxmanova. Talabalarga mikroolamning o‘ziga xosligini kreativ yondashuv asosida o‘qitishning ahamiyati// Educational Research in Universal Sciences Vol 2, 2023, 457-459b.
3. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9